



# INTERNATIONAL CONFERENCE ON MEDICINE, SCIENCE, AND EDUCATION

<https://universalconference.us>

# INTERNATIONAL CONFERENCE ON MEDICINE, SCIENCE, AND EDUCATION

Volume 02, Issue 07, 2025 (17-AUGUST)

## Editor in Chief

**Dr. Rajeev Ojha** - Interdisciplinary Research in Basic Sciences, Jamia Millia Islamia, New Delhi -110025, India

## Editorial Team

Sunita Sarawagi - Indian Institute of Technology Bombay, Mumbai, India.

Dr Manjunatha LH - Professor, REVA University, INDIA

Asish Bera - Edge Hill University, UK, BITS Pilani, India

Dr Sunildro LS Akoijam - Assistant Professor of Management, North Eastern Hill University, India

Madan Mohan Singh - Professor of Mathematics, North-Eastern Hill University, Shillong, India

Dr. Anupam Singh - Associate Professor-CSE, Graphic Era Hill University Dehradun, India

Dr. Sargam Bahl Walia - School of Management, Graphic Era Hill University, Dehradun, Uttarakhand, India

Narayan Pradhan - Indian Association for the Cultivation of Science

Ashok Kumar - Kumar Associate Professor E&CE National Institute of Technology, Hamirpur, India.

Anjali Pal - Department of Civil Engineering, Indian Institute of Technology Kharagpur - 721302, India.

Rajnish Joshi - Professor of Medicine, All India Institute of Medical Sciences, Bhopal, India

Mukul Kumar - IIT Mumbai (India); Meijo University (Japan); HEG Ltd. (India)

Prof. Kuruvilla Joseph - Indian Institute of Space Science and Technology (IIST)

Prof. Yogesh C. Sharma - D.Sc., FRSC, FBRS, FIAPS; FISEES, Department of Chemistry, Indian Institute of Technology

Professor Indra Mani Mishra - Indian Institute of Technology (Indian School of Mines), Dhanbad; Formerly at

Eshkaraev Sadridin Chorievich - Head of the Department of Medicine and Natural Sciences, Doctor of Philosophy in Chemistry, Associate Professor, Termez University of Economics and Service, Termez, Uzbekistan. . ORCID

[esadir\\_74@rambler.ru](mailto:esadir_74@rambler.ru)

## **O‘TKIR TINNITUSNI ERTA BOSQICHDA ANIQLASH VA UNI GIPERBARIK OKSIGENATSIYA (GBO) ORQALI OLDINI OLISH**

**Abdunazarov Toxirjon Sadulla o‘g‘li .**

Central Asian Medical University “Xirurgik kasalliklar” kafedrası assistenti.

Email: tohirjonabdunazarov102@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0007-4924-3897>

---

### **Annotatsiya**

O‘tkir tinnitus — bu eshitish organlarida ob‘ektiv tashqi manbasiz shovqin yoki “g‘uvillash” sezilishidir. U ko‘pincha eshitish nervi yoki labirintning ishemik zararlanishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Ushbu holatning erta aniqlanishi va GBO (giperbarik oksigenatsiya) yordamida oldini olish orqali surunkali sensor neyral eshitish buzilishlari va bemorning hayot sifatini sezilarli darajada yaxshilash mumkin.

---

### **Kirish**

Tinnitus, ayniqsa o‘tkir shaklda, eshitish nervi yoki ichki quloq qon ta‘minotining buzilishi natijasida paydo bo‘ladi. O‘tkir sensor neyral eshitish pasayishi bilan birga kechadigan tinnituslar nevrologik va otologik tezkor yondashuvni talab qiladi. Erta davrda aniqlanmasa, bu holat surunkali shaklga o‘tib, davolashga chidamli bo‘lib qoladi [1].

---

### **Erta aniqlash muhimligi**

O‘tkir tinnitus erta bosqichda quyidagi yo‘llar bilan aniqlanishi mumkin:

- **Sub‘ektiv audiometriya** — tonal va nutq eshituv chegarasini aniqlash;
- **Timpanometriya** — o‘rta quloq bosimini baholash;
- **Otoakustik emissiya (OAE) va BERA** — eshitish nervi darajasidagi zararni baholash.

Erta aniqlangan holatlarda **3–5 kun ichida** GBO boshlansa, tiklanish ehtimoli sezilarli ortadi [2].

---

### **Giperbarik oksigenatsiya (GBO) roli**

GBO usuli bosim ostida 100% kislorodni nafas orqali berishga asoslangan bo‘lib, u ichki quloq va eshitish nervining ishemik zonalarini reoksygenatsiya qilishga yordam beradi. GBO:

- Qon aylanishini yaxshilaydi (mikrosirkulyatsiya);
- Gipoksiyani kamaytiradi;
- Neyroprotektiv ta’sir ko‘rsatadi;
- Antioksidant faollikni kuchaytiradi [3,4].

**Optimal kurs:** 10–15 seans, har biri 60–90 daqiqa, 1.5–2 ATA bosimda.

---

### **Klinik amaliyotda qo‘llash tavsiyalari**

- Tinnitus boshlanganidan 72 soat ichida GBO boshlash maksimal samara beradi;
- Toshqinli shovqin, eshitish pasayishi va bosh aylanishi bilan kechayotgan hollarda kechiktirmasdan yondashuv talab qilinadi;
- Parvoz, tovushli shovqin (industrial zonalar) yoki tog‘li hududdan kelgan bemorlar profilaktik ko‘rikka jalb qilinishi lozim.

---

### **Xulosa**

O‘tkir tinnitus erta aniqlansa va GBO yordamida kechiktirilmagan davolash boshlangan taqdirda, surunkali eshitish yetishmovchiligining oldi olinadi. Giperbarik kislorod terapiyasi zamonaviy neyrootologiyada samarali, xavfsiz va ilmiy asoslangan profilaktik vosita sifatida o‘z o‘rnini topmoqda.

### **Kalit so‘zlar:**

tinnitus, GBO, giperbarik oksigenatsiya, eshitish nervi, audiometriya, neyroproteksiya.

### **Adabiyotlar:**

1. Baguley DM, McFerran DJ, Hall D. Tinnitus. *Lancet*. 2013;382(9904):1600–1607.
2. Lefebvre PP, Staecker H, Van de Heyning P. Hyperbaric oxygen therapy for idiopathic sudden sensorineural hearing loss. *Acta Otolaryngol*. 2007;127(9):988–993.
3. Furuhashi A, Matsuda K, Asahi K, et al. Hyperbaric oxygen therapy for sudden deafness. *Acta Otolaryngol Suppl*. 2002;(546):6–10.
4. O‘zbekiston Respublikasi SSV. O‘tkir eshitish pasayishini davolashda giperbarik oksigenatsiya protokoli. Toshkent, 2021.

## ITALYAN VA O'ZBEK ERTAKLARIDA YAXSHILIK VA YOMONLIK G'OYALARINING MADANIY TALQINI

**Ergashova Baxora Sayfillo qizi**  
O'zDJTU mustaqil tadqiqotchisi  
[ergashova.baxoram@gmail.com](mailto:ergashova.baxoram@gmail.com)

### Annotatsiya

Mazkur tezisdagi italyan va o'zbek ertaklarida ilgari suriladigan axloqiy va falsafiy g'oyalar tahlili ko'rib chiqiladi hamda "yaxshilik va yomonlik" tushunchalarining g'oya sifatida talqiniga alohida to'xtalib o'tiladi, ularning madaniy funksiyalari yoritiladi. Asosiy tahlil obyekti sifatida Janni Rodarining Chippolino obrazi hamda o'zbek ertagidagi To'g'rivoy obrazi olinadi.

**Kalit so'zlar:** qadriyat, yaxshilik va yomonlik tushunchasi, Chippolino, To'g'rivoy, satira, yumor.

### Annotation

This thesis analyzes the moral and philosophical ideas presented in Italian and Uzbek fairy tales, with particular focus on the interpretation of the concepts of "good and evil" as ideas and their cultural functions. The main subjects of analysis are the character of Cipollino by Gianni Rodari and the character of To'g'rivoy from Uzbek fairy tales.

**Keywords:** values, the concept of good and evil, Cipollino, To'g'rivoy, satire, humor

### Аннотация

В данной тезисной работе рассматривается анализ моральных и философских идей, представленных в итальянских и узбекских сказках, с особым вниманием к трактовке понятий «добро и зло» как идей и их культурных функций. Основными объектами анализа являются образ Чипполино Джанни Родарии и образ Тугривой из узбекских сказок.

**Ключевые слова:** ценности, понятие добра и зла, Чипполино, Тугривой, сатира, юмор

**Kirish.** Ertaklar har bir xalq madaniyatining ildizlarini, axloqiy qadriyatlarini va milliy dunyoqarashini aks ettiruvchi og'zaki ijod shaklidir. Italyan va o'zbek ertaklarini lingvokulturologik nuqtayi nazardan o'rganish, til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini aniqlashga, shuningdek, madaniyatlararo tafovut va o'xshashliklarni chuqurroq anglashga imkon beradi. Lingvokulturologiya – bu tilni

faqat aloqa vositasi sifatida emas, balki madaniyatni o'zida mujassamlashtiruvchi muhim fenomen sifatida o'rganadigan fan bo'lib, u frazeologizmlar, metaforalar, til etiketi kabi birliklar orqali xalqning mentalitetini ochib beradi. V. N. Teliya, A. V. Kunin, E. M. Vereshchagin kabi olimlar til birliklari orqali xalq madaniyatining tarixiy, diniy, ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarini tahlil qilishning asoslarini ishlab chiqqan. Italyan ertaklari, ayniqsa Italo Calvino tomonidan to'plangan "Fiabe italiane" asarida jamlangan hikoyalar, aksariyat hollarda diniy, fantastik va ijtimoiy-maishiy motivlarga boy bo'lib, ularning tilida janubiy Italiya dialektlari va mahalliy leksik birliklar faol qo'llaniladi. Masalan, "La Befana" yoki "Giufà" kabi ertak qahramonlari nafaqat milliy, balki diniy ramzlar bilan uyg'unlashgan. Shu bilan birga, bu ertaklar ijtimoiy tengsizlik, mehnatga hurmat, xushomadgo'ylik, kuchli iymon va ma'naviy sabr kabi g'oyalarni o'z ichiga oladi.

O'zbek xalq ertaklarida esa ko'proq axloqiy tarbiya, mehnatsevarlik, donolik, sadoqat, katta-kichikka hurmat kabi qadriyatlar yetakchi o'rinni egallaydi. Bu ertaklarda qo'llanilgan frazeologizmlar – masalan, "ko'zi ochildi", "boshi osmonga yetdi", "og'zidan bol tomdi" kabi ifodalar – xalqning nutqiy madaniyati va tarixiy tajribasi mahsulidir. Italyan ertaklarining yana bir xususiyati shundaki, ularning ko'pi ironik yoki satirik tusda bo'lib, kuchli obrazlar va realistik ifodalar orqali hayotiy haqiqatlarni ochib beradi. Masalan, Jufà obrazining noodatiy harakatlari orqali aslida atrof-muhitdagi nuqsonlar fosh etiladi. Bunday satirik yondashuv italyan xalqining so'z o'yinlari, metaforik ifodalari va dialektlari orqali yanada boyitilgan. O'zbek ertaklarida esa ramzlar ko'proq didaktik xususiyatga ega masalan, qaroqchi dev, sehrli parilar yoki turli sinovlar orqali ertak qahramoni axloqiy kamolotga erishadi. Qahramonlarning yo'li – bu ruhiy va ma'naviy o'sish yo'lidir. Bu holat Vladimir Proppning ertaklar morfologiyasiga oid nazariyasini qo'llash orqali oson anglashiladi: har ikki xalq ertaklarida ham muayyan strukturaviy birliklar – qahramonning sarguzashtlar uchun o'z uyini tark etishi, turli sinovlardan o'tishi, g'alaba qozonishi va mukofotlanishi kuzatiladi, biroq ularning mazmuni madaniy kontekstga bog'liq ravishda farqlanadi. Til madaniyatning ko'zguisidir. O'zbek ertaklarida xalqning odob-axloqi, e'tiqodi va urf-odatlar har bir jumlada sezilib turadi. Masalan, katta yoshdagilarga "ota", "bobo" deb murojaat qilish, mehmonni kutishdagi marosimiy nutqlar, iboralar – bu milliy madaniyatning til orqali aks etishidir.

Shu bilan birga, til etiketi – ya'ni madaniyatda qabul qilingan so'zlashuv qoidalari ham ertak matnlarida muhim rol o'ynaydi. Italyan ertaklarida esa ko'proq ijtimoiy rollar, diniy iboralar va ba'zan parodiya uslubida yozilgan dialoglar orqali madaniy tafovut namoyon bo'ladi. Italo Kalvino o'z to'plamida bu xilma-xillikni dialektlar va

leksik qatlamlar orqali saqlab qolgan. O‘zbek tilida esa ertak matnlari odatda adabiy til normalari asosida yozilgan bo‘lsa-da, xalqona leksik birliklar hisoblangan “uzoq yo‘l yurish”, “qismatga sababchi bo‘lish”, “taqdirga ergashish” kabi tushunchalar orqali madaniyatning aniq xususiyatlari ochib beriladi. Ikki xalq milliy tushunchalari va yashash tarzida madaniyatlararo o‘xshashliklar ham mavjud. Har ikki xalq ertaklarida ham axloqiy g‘oyalar, yaxshilik, yomonlik, haqiqat, sabr, adolat, sadoqat kabi qadriyatlar asosiy mavzu sifatida doimiy takrorlanadi. Biroq ularning talqini va ifoda shakli o‘ziga xosdir: o‘zbek ertaklarida mehr-muhabbat, sabr-toqat orqali halollikka erishish asosiy yo‘l sifatida berilsa, italyan ertaklarida esa ko‘proq donolik, aql bilan yomonlikni yengish g‘oyasi ilgari suriladi. Bu esa til vositalarida ham aks etadi: o‘zbek ertaklarida nasihatga boy nutq shakllari ko‘p uchrasa, italyan ertaklarida esa so‘z o‘yini, allegoriya va satira vositalari orqali badiiy ifoda kuchaytiriladi. Xulosa qilib aytganda, italyan va o‘zbek ertaklarining lingvokulturologik xususiyatlarini o‘rganish orqali har ikki xalqning madaniy tafakkuri, tarixiy tajribasi, til etiketi va axloqiy me‘yorlari haqida chuqur xulosalar chiqarish mumkin. Til birliklari – ayniqsa frazeologizmlar, metaforalar, maqollar ertaklarning badiiy ta’sirchanligini oshirish bilan birga, xalq ruhiyatini ham ifodalaydi. O‘zbek va italyan ertaklari o‘rtasidagi umumiyliklar madaniy universal qadriyatlarning mavjudligidan dalolat bersa, tafovutlar esa har bir xalqning o‘ziga xos madaniy yo‘nalishini ko‘rsatadi. Bu esa lingvokulturologik tadqiqotlar uchun boy tadqiqot maydonidir. Quyida biz sizlar bilan Chippolino hamda To‘g‘rivoy obrazlarining ma’naviy va majoziy xususiyatlarini tahlil qilib chiqamiz. Chippolini obrazi mashhur italyan bolalar yozuvchisi J.Rodarining ertak qahramonlaridan biri hisoblanib, uning obrazi o‘zida qator ma’no maydonlarini mujassamlashtiradi. Chippolino nomining o‘zi lingvokulturologik jihatdan metaforik xarakterga ega bo‘lib, “cipolla” – italyan tilida “piyoz” degani, “-ino” esa kichraytiruvchi qo‘shimcha hisoblanadi, bundan ko‘rinib turibdiki, *Chippolino* – “kichkina piyozcha” degan ma’noni bildiradi. Yozuvchi piyozni(sabzavotni) ijtimoiy sinf vakiliga aylantirib, oddiy xalq timsoli sifatida foydalanadi. Piyoz qavatma-qavat tuzilgan, har bir qavati ajralib turadi – bu esa xalqning turfa qatlamlardan iboratligini, har bir qavat ortida iztirob, mehnat va og‘riq yashiringanini anglatadi. Bu obraz metaforik jihatdan kambag‘allik, mehnatkashlik, oddiylik va halollikni ifodalaydi. Chippolino – italyan jamiyatida mavjud bo‘lgan ijtimoiy tengsizlik, adolat izlash, va xalqparvarlik g‘oyalarini o‘zida mujassamlashtirgan qahramon. Chippolino va uning do‘stlari oddiy, quvnoq, lekin aql bilan harakat qiladigan qahramonlar bo‘lib, ular orqali Rodari italyan xalqining anti-fashistik kayfiyatini, sinfiy kurashga bo‘lgan ehtiyojini badiiy ifodalaydi. Chippolinoning nutqlarida oddiylik, samimiylilik va sadoqat kabi italyan xalqining

muhim madaniy qadriyatlari aks etadi. U do‘stlariga “Biz birlikda kuchmiz”, “Odamlarga yordam berish kerak”, degan oddiy, lekin chuqur ahloqiy nutqlar bilan murojaat qiladi. Bu esa italyan tilidagi madaniy stereotiplardan biri bo‘lgan hamjihatlik va oilaparvarlikning badiiy ifodasidir. Chippolino – bu oddiy bolalar qahramoni emas, balki madaniyatlararo dialogga xizmat qiluvchi obrazdir. Uning tilidagi soddalik – xalqning madaniy xususiyatlarini aks ettiradi; metaforik ismi madaniy kod sifatida ishlaydi; harakatlaridagi ijtimoiy mazmun esa universal qadriyatlarni ifodalaydi. Shu bois, Chippolino nafaqat italyan bolalarining, balki dunyo bolalarining ongida adolatga intilish, do‘stlik va kurash g‘oyalarini uyg‘otadi. U lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinganda italyan xalqining tili, etiketi, tarixiy ruhiyati va axloqiy tushunchalarining badiiy modeli sifatida qaraladi.

O‘zbek xalq ertaklaridan biri bo‘lgan “To‘g‘rivoy va Egrivoy”da ham To‘g‘rivoy obrazi orqali rostgo‘ylik, halollik, mardlik va yaxshilik g‘oyalari ilgari suriladi. Egrivoy qanchalik yomonliklar qilmasin, To‘g‘rivoy unga yaxshilik qilishda davom etadi va ertak so‘ngida Egrivoy o‘zi qazigan chohga o‘zi tushadi va jazosini oladi. O‘zbek xalq ertaklarida har doim axloqiy va tarbiyaviy xulosalash muhim ahamiyatga ega, ya'ni “qissadan hissa shuki” deyilganda, albatta o‘quvchi ertakni xulosalay olishi lozim. O‘zbek xalq ertaklarida ham ko‘pincha milliy qadriyatlar, urf-odatlar ulug‘lanadi, ayniqsa, to‘y marosimlariga alohida e‘tibor qaratiladi:”Qirq kecha-yu, qirq kunduz to‘y berishibdi”, “Karnay-surnayning ovozi yetti mahallaga eshilibdi”. Bu kabi iboralar madaniy kodlarni ko‘rsatib berishga xizmat qiladi. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz joizki, folklor xalqlar etnografiyasi va antropologiyasini ko‘rsatib berishda juda muhim ahamiyatga ega, shunday ekan ikki xalq ertaklarining lingvokulturologik tahlili orqali tillardagi allamorfik va izomorfik xususiyatlarni yoritishimiz mumkin bo‘ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. B.Ergashova. Lingvokulturologiya – til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi. Xorijiy filologiya №2 (95): 141-146 betlar.  
, 1921 – 103-bet
- 2.Usmonova Sh. “Lingvokulturologiya” (darslik). – Toshkent, 2019 – 82-bet
- 3.V.V. Vorobyov. Лингвокультурология: теория и методы. – РУДН (Rossiya Do‘stlik Universiteti), 1997 – 36-bet
- 4.Eragashova B., O‘zbek folklorshunosligining tarixi va taraqqiyoti. – So‘z san’ati jurnali, 2024.
- 5.V.N. Teliya. “Русская фразеология: Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты”, Школа «Языки русской культуры», 1996 – 123-bet.

## **ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ КЛИНИЧЕСКИХ АЛГОРИТМОВ В ЛЕЧЕНИИ ГЛУБОКОГО ПАРАПРОКТИТА У БОЛЬНЫХ САХАРНЫМ ДИАБЕТОМ**

**Косимов А.Л.  
Ахмаджонов Ж.У.  
Жураев Г.Г.**

Андижанский государственный медицинский институт, кафедра общей  
хирургии и трансплантологии

### **Актуальность.**

У больных сахарным диабетом глубокий парапроктит протекает тяжело, диагностируется поздно и часто сопровождается тяжелыми осложнениями. Из-за ослабления иммунной системы, нарушения микроциркуляции и нейропатических факторов заболевание клинически обострено и быстро распространяется по организму. В истории искусства эти случаи рассматриваются как сложная задача хирургии, и в последние годы широко используются подходы, связанные с индивидуальными алгоритмами и метаболическим контролем.

Цели и задачи.

Целью исследования является оценка влияния комплексного подхода к лечению глубокого парапроктита у больных сахарным диабетом на клинические результаты на основе четких клинических алгоритмов.

Задачи исследования:

1. Изучить влияние сахарного диабета на патогенез глубокого парапроктита;
2. Определение степени точности CRP, HbA1c, МРТ и КТ в диагностике;
3. Категоризация состояния пациента на основе индекса тяжести гангрены Fournier's и шкалы SOFA;
4. Разработка и анализ алгоритмических хирургических методов;

Материалы и методы.

В 2021-2024 годах проведен клинический анализ 68 больных диабетом II типа с диагнозом глубокий парапроктит в стационарных условиях. В диагностике использовались физикальный осмотр, лабораторные анализы (лейкоциты, CRP, HbA1c), инструментальные исследования (УЗИ, МРТ, КТ) и шкалы оценки состояния. Пациенты были разделены на 3 категории в зависимости от тяжести состояния и выполнялись вмешательства (сетон, NPWT, дебридмент, колостома) в соответствии с хирургическими алгоритмами.

### Результаты.

МРТ исследование показало эффективность в выборе правильной хирургической тактики на 94%. У больных с уровнем HbA1c выше 7,5% заживление язв в среднем составило 16,2 дня, тогда как у больных, достигших контроля, этот показатель сократился до 10,4 дня ( $p < 0,05$ ). Частота рецидивов у лечившихся по алгоритму составила 2,4%, а послеоперационные септические осложнения - 3,7%. В контрольной группе эти показатели составили 8,9% и 11,6% соответственно.

### Заключение.

Эффективное лечение глубокого парапроктита у больных сахарным диабетом на основе индивидуальных клинических алгоритмов позволяет контролировать распространение инфекции, снижать частоту рецидивов и послеоперационных осложнений. Оценка состояния на основе МРТ и лабораторных показателей в диагностике дает возможность оптимизировать хирургический процесс. Благодаря комплексному подходу, разработанному на этой основе, сокращается продолжительность пребывания в стационаре, повышается экономическая эффективность лечения и разрабатываются рекомендуемые для практики алгоритмы.

## OQSILLAR TIRIK JONZOTLARNING ASOSI

**P.Uchqunova.**


**N.R.Mullabayev**

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**


**Annotatsiya :** Ushbu maqolada oqsillar, oqsillarning tuzilishi, oqsillar denaturatsiyasi, oqsillar uchun rangli (sifat) reaksiyalari, oqsilning strukturasi (tuzilishi) va kimyoviy xossalari to'g'risida fikrlar muhokoma qilingan.

**Tayanch so'zlar:** oqsil, peptidlar, polipeptidlar, oqsillar denaturatsiyasi, oqsillar gidrolizi, regulyator, energetik, transport.


### Oqsillar



Ba'zi normal tuzilishli aminokislotalar sintetik polipeptidlar (poli-amid tolalar) olishda ishlatiladi.  $\epsilon$ -aminokapron kislota polikondensatsiya-langanda kapron tolasi olinadi:




**Oqsil**- $\alpha$ -aminokislota qoldiqlaridan tuzilgan, polipeptid zanjiridan iborat bo'lgan tabiiy yuqori molekulyar birikmalar (biopolimerlar)dir.



Peptid va oqsillar  $\alpha$ -aminokislotalardan tuzilgan yuqori molekulyar birikmalardir. Molekulasida 100 tagacha aminokislotalar qoldiqlari saqlagan yuqori molekulyar birikmalar peptidlar, 100 dan ortiq aminokislotalar qoldiqlarini saqlaganlari esa oqsillar deyiladi. Peptidlar oqsillardan biolo-gik nuqtai nazardan o'z faoliyatlarining cheklanganligi bilan farq qiladi. Peptidlar uchun boshqaruvchanlik xossalari ko'proq xos. Oqsillar esa fer-ment, gormon, tuzuvchi, tashuvchi, qisqaruvchi, himoya vazifalarini bajaradi. Oqsillar suvda eruvchanligiga ko'ra globulyar va fibrillyar oqsillarga bo'linadi. **Globulyar oqsillar**-oddiy oqsillar bo'lib, suvda shuningdek, kislota va ishqorlarning suvli eritmalarida eriydi (masalan, tuxum oqsili albumin), **fibrillyar oqsillar**-suvda erimaydi (Masalan; keratin).

Oqsillar murakkab tuzilishli bo'lib, birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi va to'rtlamchi tuzilishlar farqlanadi. Ya'ni oqsillar birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi va to'rtlamchi tuzilishga ega. **Oqsilning birlamchi strukturasi** (tuzilishi) deganda oqsil molekulasining peptid (amid) bog'lar orqali ketma-ket tuzilishi tushuniladi.



Oqsilning birlamchi strukturasi

Oqsil tuzilishining polipeptid nazariyasini XX asr boshlarida E. Fisher taklif etgan. Insulin  $C_{254}H_{377}N_{65}O_{75}S_6$  (gormon)ning birlamchi tuzilishga ega ekanligi birinchi marta 1954 yilda ingliz biokimyogari F. Sendjer tomonidan aniqlangan.



Uning molekulasi 2 ta polipeptid zanjiridan iborat bo'lib, ular bir-biri bilan bog'langan (bir zanjirida 21 ta, ikkinchisida 30 ta aminokislota qoldig'i bor,

$$M_r(\text{insulin}) = 5700).$$

Oqsillarning nisbiy molekulyar massalari 5 mingdan o'nlab milliongacha oraliqda o'zgaradi. Oqsil molekulasining xossasi nafaqat uning birlamchi tuzilishiga, balki polipeptid zanjirining konfiguratsiyasiga ham bog'liq.

**Ikkilamchi tuzilish.** Valent burchaklarga va aminokislota qoldiqlari-ning o'zaro joylashishiga mos ravishda polipeptid zanjir, odatda, spiral-simon (karboksil va aminoguruhlarining orasida hosil bo'ladigan ichki molekulyar vodород bog'lanish

natijasida) buralgan bo'ladi. Bu oqsillar-ning *ikkilamchi tuzilishi* deyiladi. Zanjirlar buralishining asosiy ikki xil usuli mavjud:  $\alpha$ -spiral va  $\beta$ -spiral.






Karboksi guruh va aminoguruh orasidagi vodorod bog'lanish


$\alpha$ -spiral

Spiralning mustahkamligi uning qo'shni o'ramlardagi CO va NH guruhlar orasida vodorod bog'lanishning hosil bo'lishi bilan aniqlanadi. Nazariy jihatdan hamma karbonil va imino guruhlar vodorod bog'lanish hosil qilishda ishtirok etishi mumkin, shuning uchun ikkilamchi tuzilish juda mustahkam bo'ladi. *Ikkilamchi tuzilish* 1951 yilda L. Poling tomonidan taklif etilgan. **Oqsilning uchlamchi tuzilishi** - spirallarning fazoviy konfiguratsiyasi.


Uchlamchi tuzilish polipeptid zanjiriga birikkan funksional guruhlarining o'zaro ta'siri natijasida saqlanib turadi. Turli funksional guruhlarining ta'sirlashuvi natijasida polipeptid zanjirlarda *disulfid* (-S-S-) ko'prigi, *karboksil va aminoguruhlar orasida tuz ko'prigi* ( $\text{NH}_3^+ \text{COO}^-$ ) (ion bog'); (-karboksil va gidroksil guruhlar orasida) *murakkab efir ko'prigi* hosil bo'ladi:



**Uchlamchi tuzilishni barqarorlovchi bog'lar**




Natijada polipeptid zanjirlar fazoda ma'lum shaklni egallab, oqsilning uchlamchi tuzilishini hosil qiladi:



### Ribonukleazaning uchlamchi strukturasi

Rim raqamlari bilan sistein qoldig'idagi S – S bog'lari ko'rsatilgan

**To'rtlamchi tuzilish**-bir nechta uchlamchi tuzilishga ega bo'lgan polipeptidlardan tashkil topgan birikmalar. To'rtlamchi tuzilish alohida-alohida polipeptid zanjirlar orasidagi vodorod bog'lanish va gidrofob o'zaro ta'sirlanishlar hisobiga saqlanib turadi.




. Bu jarayon natijasida oqsillarning (birlamchi tuzilishi buzilmaydi) ikkilamchi, uchlamchi va to'rtlamchi tuzilishlari (strukturalari) buziladi, natijada oqsillar o'zlarining biologik faolliklarini yo'qotadi.

#### **Denaturatsiya:**

- Harorat 60<sup>0</sup>C gacha va undan yuqori ko'tarilganda;
- Oksidlanish, qaytarilish jarayonlarida disulfid bog'lari buzilganda (uzilganda);
- Kuchli akseptorlar (mochevina, tuzlar va boshqalar) ta'sirida vodorod bog'lanishlar uzilganda;


- Fizikaviy ta'sirlar (ultratovush, turli xil nurlar ta'sirida va h.z) natijasida sodir bo'ladi. Oqsillarning aminokislota qoldiqlari radikallarida turli xil funksional guruhlar bo'ladi. Shuning uchun oqsillar oksidlanish-qaytarilish, eterifikatsiya, alkilash, nitrolash reaksiyalariga kirishadi hamda asos va kislota sifatida tuzlar hosil qiladi (oqsillar amfoter biopolimerlardir).

### 1. Oqsillar gidrolizi:




### 2. Oqsillarni cho'ktirish:

a) *Qaytar denaturatsiya:*




b) *Qaytmas denaturatsiya:*



Masalan; tuxum oqsili-albumin 60-70°C da eritmadan cho'kadi, suvda erish xususiyatini yo'qotadi.


### 3. Oqsillar uchun rangli (sifat) reaksiyalari:

a) *Ksantoprotein reaksiyasi* (benzol halqasini saqlovchi aminokislotalar uchun). Bu reaksiya yordamida fenilalanin, tirozin, gistidin, triptofanlar aniqlanadi:




b) *Biuret reaksiyasi* (peptid bog' uchun):






d) Sistein reaksiya (oltingugurt saqlovchi aminokislota qoldig'i uchun):




e) Ningidrin bilan reaksiya:



ko'k binafsha rangli modda

### Organizmda oqsillarning o'zgarish sxemasi:



Oqsillar yer yuzasida barcha tirik jonzoatlarning asosi hisoblanadi va ko'pgina funksiyalarni bajaradi:

1. Plastik	Hujayra qurilish materiali	Masalan; kollagen, mem-brana oqsillari
------------	----------------------------	--

2. Transport	Turli moddalarni tashiydi	Masalan; gemoglobin (O <sub>2</sub> va CO <sub>2</sub> tashiydi)
3. Himoya	Organizm uchun yot moddalarni yo'qotadi	Masalan; qon zardobi $\gamma$ -globulini
4. Energetik	Organizmda energiya bilan ta'minlaydi	1 g oqsilning parchalanishidan 17,6 kDj energiya ajraladi
5. Katalitik	Organizmda boradigan kimyoviy reaksiyalarni tezlashtiradi	Barcha fermentlar kimyo-viy tarkibiga ko'ra oqsil hisoblanadi. Masalan; ribonukleaza
6. Qisqaruvchanlik	Organizmdagi va hujayradagi barcha harakatlarni ta'minlaydi	Masalan; miozin (mushak oqsili)
7. Regulyator	Organizmda almashinuv jarayonlarini boshqaradi	Gormonlar, masalan, insulin (glukoza almashinuvi)

Oqsillar organizmda spetsifik (maxsus) vazifalarni bajaradi: Masalan, nerv hujayralari o'rtasida impuls almashinuvini ta'minlaydi.

Oqsillar insonlar ovqat ratsionining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi: oziq-ovqat tarkibida oqsillarning yetishmovchiligi yoki bo'lmasligi jiddiy kasalliklarni keltirib chiqaradi. Hayvonlarning oziqlanishining almashtirib bo'lmaydigan asosiy tarkibiy qismi sifatida oqsilning ahamiyati yaxshi ma'lum. Tirik organizm to'qimalarining tarkibiy asosi oqsil bo'lib to'qimalarning o'sishini va yangilanishini ta'minlaydi. Ular tirik materiyaning ishlashida, fiziologik jarayonlarni katalizlashda va tartibga solishda asosiy rol o'ynaydi. Barcha fermentlar va bir qator gormonlar, masalan insulin, oqsil xususiyatiga ega. Kislorodni (gemoglobin), ozuqaviy moddalarni (qon zardobidagi oqsillarni) tashishda oqsillarning roli katta. Tananing immunitet tizimining tarkibiy qismi (antitanalar) bo'lib, oqsillar himoya funksiyasini bajaradilar. Oqsillar va nuklein kislotalar orqali genetik ma'lumotlar almashinishi amalga oshiriladi.

### ADABIYOTLAR

1. Mahsumov A.G., A.J. Jo'rayev Bioorganik kimyo. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007.
2. Аловитдинов А. Б., Исматуллаева М.Г., Туробжонов С.М., Холмуродов Н.А.. Органик кимё. – Т.: Ўқитувчи нашриёт-матбаа ижодий уйш. 2007.
3. Abdulxayeva M.M., Mardonov O'.M. Kimyo. – T.: O'zbekiston, 2002.
4. Masharipov S., Tirkashev I. Kimyo. – T.; O'qituvchi. 2003.
5. Masharipov S., Tirkashev I. Kimyo. – T.; O'qituvchi. 2003.

6. Пузаков С.А., Попков В.А. Пособие по химии: Программы. Образцы экзаменационных билетов. Вопросы, упражнения, задачи. –М.: Высшая школа, 1997.
7. Кузменко Н.Е., Еремин В.В., Попков В.А. Начала химии: Современный курс для поступающих в вузы. – М.: Экзамен, 1999.
8. Егоров А.С., Аминова Г.Х. Экспресс-курс неорганической и органической химии (для поступающих в вузы). – Ростов и/Д: Феникс, 2002.


## VENCHUR JAMG‘ARMALARI, YOSHLARNING LOYIHALARINI KRAUDFANDING (OMMAVIY MOLİYALASH) PLATFORMALARI ORQALI MOLİYALASHTIRISH IMKONIYATLARI

**Nuriddinov Davronbek Murodiljon o‘g‘li**

**Annotatsiya:** Kraudfanding (xalq moliyalashtirishi, ingliz tilida crowd funding, crowd - “omma”, funding - “moliyalashtirish”) - bu insonlarning (donorlarning) birlashib, jamoaviy tarzda o‘z mablag‘lari va boshqa resurslarini beg‘araz maqsadda biror loyiha yoki maqsadni amalga oshirmoqchi bo‘lgan tashkilot yoki shaxsga yo‘naltirish jarayonidir.

**Kalit so‘zlar:** Kraudfanding, Venchur jamg‘armalari, startaplar, investitsiya, treninglar, loyiha, mentorlik, koalitsiya, ekspert baholash tizimi, inovatsionlik, rivojlanish potentsiali, investitsiya fondlari, mablag‘ ajratib, texnologik taraqqiyot, “AloqaVentures” venchur.

Venchur jamg‘armalari - yuqori tavakkalchilikka ega bo‘lgan startaplar va innovatsion loyihalarni moliyalashtiruvchi maxsus investitsiya fondlaridir. Ular boshlang‘ich bosqichdagi kompaniyalarga yoki loyihalarga mablag‘ ajratib, ulush evaziga ularga sherik bo‘ladilar. Venchur kapitali innovatsion iqtisodiyotning ajralmas qismi bo‘lib, texnologik taraqqiyot va iqtisodiy rivojlanishga katta ta’sir ko‘rsatadi.



### Venchur jamg‘armalari tomonidan startap loyihalarni moliyalashtirilgan modeli

Startaplar rivojlanish bosqichida ko‘pincha investitsiyaga muhtoj bo‘lib, eng yaxshi qo‘llab-quvvatlash manbalaridan biri venchur va investitsiya fondlari bo‘lishi mumkin.

Ushbu jamg'armalar innovatsion loyihalarga qiziqish bildirishadi, ammo ularning e'tiborini jalb qilish uchun startaplarni qanday tanlashlarini tushunish muhimdir.

Investitsiya fondlari biznesni qo'llab-quvvatlash orqali uning rivojiga hissa qo'shadi. Misol uchun, yetkazib berish platformasi xizmatini kengaytirmoqchi bo'lsa unga ma'lum miqdorda mablag' kerak bo'ladi. Bunday vaziyatda tadbirkor loyihani yangi bosqichga olib chiqish maqsadida fondga ariza beradi va kerakli sarmoyani qo'lga kiritadi. Fond esa, o'z navbatida, kompaniyada ulushga ega bo'ladi.

Jamg'armalar davlat ko'magida faoliyat ko'rsatishi, kompaniyalar guruhining bir qismi yoki mustaqil tashkilot bo'lishi mumkin.

“AloqaVentures” - O'rtacha investitsiya miqdori: \$50-\$250 ming

2021-yilda “Aloqabank” tomonidan “AloqaVentures” venchur fondi startaplarga investitsiya kiritib, qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan.

Hozirgi kunda “AloqaVentures” venchur fondining kapitali \$6,5 mlanni, kiritilgan investitsiyalar miqdori \$3,7 mln tashkil etadi.

Fond “Pre-Seed” va “Seed” bosqichidagi startaplarga investitsiya, bank ekotizimi bilan integratsiya, xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyati, marketing, texnik va yuridik tomondan ko'maklashadi.

Qanday talablarga javob berish kerak: taqdim etilayotgan startaplar MVP tayyor, sinovdan o'tkazilgan va ishga tushgan bo'lib, sotuvlari bo'lishi hamda savdolar oyma-oy o'sish ko'rsatgichiga ega bo'lishi kerak. Bundan tashqari loyiha mahalliy va xalqaro bozorlarda ommalashib, fondning talablariga javob berishi lozim.

“UzVC” - O'rtacha investitsiya miqdori: \$50-\$150 ming.

“UzVC” — O'zbekistondagi birinchi milliy venchur fondi hisoblanadi. Birinchi venchur fondining boshlang'ich kapital miqdori 15 mlrd so'mni tashkil etib, loyihalar va startap ekotizimni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish jarayonini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida tuzilgan. 14-oktabr kuni “UzVC” milliy venchur fondi faoliyati venchur jamg'armalarni moliyalashtiruvchi “Fondlar fondi” sifatida qayta tashkil etilib, 150 mlrd so'm miqdorida mablag' ajratilgan.

Bugungi kungacha fond 9ta startapga \$960 ming miqdorida mablag' ajratib, ayni damda kompaniya investitsion portfelining umumiy qiymati \$2 mln hisoblandi.

Qanday talablarga javob berish kerak: taqdim etilayotgan startap iqtisodiy muammolar yechimini taklif etishi, ichki va xalqaro bozorga chiqa olishi bilan bir qatorda MVP tayyor, sinovdan o'tkazilgan bo'lishi lozim.

Venchur jamg'armalari innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ular yangi texnologiyalarni ishlab chiqish, ilmiy tadqiqotlarni

tijoratlashtirish, yuqori texnologik mahsulotlar yaratish va milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lex.uz
2. Edu.uz
3. G'ulomov S.S. "Tadbirkorlik va kichik biznes". T., 2002
4. G'ulomov S.S. "Investitsiyani loyihaviy tahlili". T., 1995 yil
5. Hargadon Endryu. *Innovatsiyalarni boshqarish. Etakchi kompaniyalarning tajribasi*, M., 2007 — 304-bet. [ISBN 1-57851-904-7](#)
6. 4.2. [Drucker, Piter Ferdinand](#). *Biznes va innovatsiya*, M., 2007 — 432-bet. [ISBN 0-88730-618-7](#).
7. 4.3. Shemetev A.A.. *Innovatsion menejmentning xalqaro standartlari o'quv qo'llanma (oliy o'quv yurtlari talabalari va avangard o'qituvchilari uchun)*, 2014. [ISBN 978-1-62951-210-5](#).

**UDC : 616.8 - 009.11/12 : 612.017.1 - 036 : 615.89**  
**MENTAL DISORDERS IN CEREBRAL PALSY**

**Sharipov A.T.**

Bukhara State Medical Institute

**Abstract.** The article covers in detail modern approaches to complex diagnostics and correction of mental development disorders in children with cerebral palsy (CP). It is shown that mental disorders in CP are diverse and are represented by cognitive disorders (impaired perception, memory, attention, visual-motor coordination, intelligence and speech), residual organic borderline disorders (cerebrosthenic, neurosis-like, psychopathic syndromes), as well as pathological personality development (character accentuation, mental infantilism). Diagnostics of mental disorders in CP is a complex task due to their diverse combination with motor, speech and sensory pathology, which requires an integrated approach. The article describes differential diagnostic criteria for distinguishing between mental retardation and intellectual disability in cerebral palsy, and also covers in detail modern trends in comprehensive rehabilitation (including medical, social, psychological and pedagogical correction) of cognitive, emotional and behavioral disorders in patients with cerebral palsy.

**Key words:** cerebral palsy, mental disorders, cognitive disorders, mental retardation, mental retardation, neurosis-like syndrome.

